(Sh.Seytov). –Onda oyanıp ketpesten burın barayın! –dep, baslıqtıń xatın aldına tasladı da shayqatılıp barıp, esikten *shıǵıp ketti* (Sh.Seytov). *Kel demek* bar, *ket demek* joq (Qoraqalpoq xalq maqollari).

Antonimik munosabatda bo‘lgan qo‘shma fe‘llarning bir guruhi bosh kelishikdagi so‘zlarga ko‘makchi fe‘llarning birikishidan hosil bo‘ladi: *jek kóriw – jaqsı kóriw, úmit etiw – gúder úziw* va h.k. Masalan: *Jan almaq* ańsat *jan bermek* qıyın … (Sh.Seytov). *Jaqsı kórsem* qáyteyin! –dep eki kózin jeńi menen sıpırdı (Sh.Seytov). *Jek kórgen* adamnıń ózin sonshelli baspalatqanına tap usı máýlette bir jarılǵısh bomba bolmaǵanına qattı ókindi (Sh.Seytov).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslikda fe‘llardan yasalgan antonimiyada *-ma//-me, -ba//-be, -pa//-pe* affikslari yordamida antonimlar yasaladimi? kabi munozarali fikrlar ham yuzaga kelmoqda. Bizga ma‘lumki, ushbu affikslar yordamida fe‘lning bo‘lishsiz shakllari yasaladi. Fe‘lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari o‘zaro antonim bo‘la oladimi? Ayrim tilshunos olimlar ularni antonimlar emas desalar, ba‘zilari antonimlarning alohida bir turi, deb hisoblashadi.

O‘zbek tilshunosligida bu masalani R.Shukurov teran va har tomonlama tadqiq qilib, sifatdosh formasining bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarining antonim bo‘la olishini tasdiqlaydi. Lekin aniqlik mayli shaklidagi bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar antonimik munosabatga kirisha olmasligini til faktlari yordamida ilmiy asoslab beradi. Biz ham R.Shukurovning fikrini to‘liq tasdiqlaymiz. Haqiqatan, sifatdoshning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari o‘zaro antonim bo‘la oladi. Masalan: *oqıǵan – oqımaǵan, pisken – pispegen, kelisken – kelispegen.*

Sifatdoshlar bir tomondan sifat so‘z turkumiga yaqin, sifat so‘z turkumi kabi otga nisbatan aniqlovchi vazifasini bajarishi, ularning o‘zaro antonimik munosabatlarga kirisha olishini ta‘minlaydi. Ayniqsa, *-ǵan//-gen* shaklidagi sifatdoshlarning antonim bo‘la olishini qoraqalpoq tili faktlari to‘liq tasdiqlaydi. Masalan: *Oqıǵan* ozar, *oqımaǵan* tozar (qoraqalpoq xalq maqoli). Bu misolda sifatdoshlar substantivatsiya hodisasiga uchragan va *oqıǵan* so‘zi *bilimli*, savodli kabi so‘zlar bilan, *oqımaǵan* so‘zi *bilimsiz*, *savodsiz* kabi so‘zlar bilan sinonimik aloqalarga kirisha oladi.

To‘g‘ri, fe‘lning aniqlik maylidagi *keldi – kelmedi, ketti – ketpedi, jıladı – jılamadı* kabi so‘zlar o‘zaro antonimik munosabatga kirisha olmaydi, chunki bu so‘zlarda faqat bitta harakat bo‘lib, unga qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin bo‘lgan harakat yo‘q. Biroq sifatdoshning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari harakat orqali narsa-hodisalarning belgisini bildirib kelganda, ularda antonimik munosabat yuzaga keladi. Ular har xil o‘zakli antonimlar kabi birinchi ma‘nosida yoki barcha ma‘nolarida bir-biriga zid antonimik munosabatlarni hosil qiladi. R.Shukurov bunga misol tariqasida *pishgan-pishmagan* sifatdoshlarini keltirib, bu so‘zlarning barcha ma‘nolarida antonim bo‘la olishini o‘zbek tili materiallari negizida asoslab bergan [3;14–15 b.].

Hozirgi qoraqalpoq tilida ham o‘zbek tilidagi kabi, sifatdoshlar o‘zaro antonimik munosabatlarga kirisha oladi. Masalan: *Pisken* gerbishten salınǵan tırnaqlar unırap túlegen (T.Qayıpbergenov). Kempir ol awılǵa barsa jarma ele *pispegen* eken (Qq.x.e.). Basında malaqay, uzın boylı, sın-sınbatı *kelisken* jigit kirip keldi (A.Abdiyev). *Kelispegen* isińdi, bılamıq sındırar tisińdi (Qoraqalpoq xalq maqoli).

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, fe‘llar nutqda qo‘llanishi jihatidan unumli so‘z turkumi hisoblanadi. Antonimik munosabatdagi fe‘llar ham fe‘l so‘z turkumining semantik guruhlarining katta qismini tashkil etadi. Qoraqalpoq tilida fe‘llardan yasalgan antonimlarning yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek turli ma‘no xususiyatlarini ifodalay olishi ularning tilimizda faol ishlatiladigan birlik ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1965.

(2). Мусин Ж. Антонимы в казахском языке. Автореф. дисс… канд.филол.наук, Алма-Ата, 1970.

(3). Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. Тошкент, “Фан”, 1977.

(4). Молонова Л. Антонимы в бурятском языке: лексико-грамматический аспект (в сопоставлении с антонимами русского языка). Автореф. дис. …канд.фил.наук, Улан-Удэ, 2008.

Qodirova Xurshida Marselovna (Urganch davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi dotsenti, PhD; e-mail: xurshidamarselovna@gmail.com)

XORAZM ONOMASTLARINING LEKSIKOGRAFIK FAOLIYATI NATIJALARI VA DOLZARB VAZIFALAR

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyati, ularning onomastik leksikografiyaga qo‘shgan hissasi va ularning amaliy ahamiyati, bugungi kundagi Xorazmda onomastik leksikografiyasining ahvoli, natijalar, mavjud muammolar va galdagi vazifalar xususida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar**: onomastika, onomastik leksikografiya, toponimika, toponimik leksikografiya, toponimik lug'at, antroponim, laqab, taxallus, "Avesto", dostonlar onomastikasi, kosmonim, fitonim, biblionim.*

Кадирова Хуршида Марселовна (доцент кафедры узбекского языкознания Ургенчского государственного университета, кандидат филологических наук)

РЕЗУЛЬТАТЫ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХОРЕЗМСКИХ ОНОМАСТОВ И АКТУАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ

***Аннотация**. В статье рассматривается лексикографическая деятельность хорезмских ономастиков, их вклад в узбекскую ономастику, результаты, проблемы и актуальные задачи.*

***Ключевые слова**: ономастика, ономастическая лексикография, топонимия, топонимическая лексикография, топонимический словарь, антропоним, прозвище, псевдоним, «Авеста», ономастика эпосов, космоним, фитоним, библионим.*

Kadirova Khurshida Marselovna (Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics, Urgench State University, PhD)

RESULTS OF LEXICOGRAPHIC ACTIVITY OF KHOREZM ONOMASTS AND CURRENT TASKS

***Annotation**. The article discusses the Uzbek lexicographic activity of Khorezm onomastists, their contribution to onomastic lexicography, results, problems and current tasks.*

***Keywords**: onomastics, onomastic lexicography, toponymy, toponymic lexicography, toponymic dictionary, anthroponym, nickname, pseudonym, "Avesta", onomastics of epics, cosmonym, phytonym, biblionym.*

Kirish. Har qanday nom hudud tarixi bilan bog'liq. Ular xalq hayotini, turmush tarzini, dunyoqarashini ko'rsatadi. Vaqt o'tishi bilan nomlarning aksariyati iste'moldan chiqib boradi, ularning o'rniga zamonaviy, boshqa tillardan kirib kelgan nomlar qo'llanila boshlaydi. Buni E.Begmatovning "O'zbek ismlari" kitobida keltirilgan *Toshon, Toshoxun, Toshoshar, Toshparda, Toshtan* [3;94-b.] kabi erkak ismlari, yoki *Bozoroy, Bozorxon, Bozorxol, Boisoy, Boybeka, Boygul, Bolli* [3;134-b.] kabi ayol ismlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot usullari. Z.Do'simov va X.Egamovlar tomonidan 1977-yilda nashr qilingan "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati"da o'sha davr vaziyatidan kelib chiqqan holda, ko'plagan joy nomlarining izohlanganini ko'rish mumkin. Nomlar nihoyatda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir... Ular xalqimiz o'tmishiga hurmat uyg'otadi, mehr-muhabbatni oshiradi, vatanparvarlik hissini mustahkamlaydi. Shu jihatdan o'quvchilarda mazkur lug'atga bo'lgan ehtiyoj katta ekanligini ko'ramiz [1;5-b.] (ushbu lug'atning qoraqalpoq tiliga tarjimasi 1991-yilda nashr qilingan).

Munozara va natijalar. Lug'atning bugungi kunda ham toponimika sohasi bo'yicha izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar tomonidan asosiy adabiyot sifatida foydalanilayotgani uning qimmatini ko'rsatib beradi. Ammo ushbu lug'at bugungi kun talablariga to'la javob bermasligi, uni yangilash, qayta tahrirlash ehtiyoji mavjudligini ham inkor qilib bo'lmaydi.

Nomlarga berilgan izohlarning aksariyati mujmal shaklda yakunlangan. Buni "Shunday ekan, toponimni chuqurroq o'rganish talab qilinadi" [1;137-b.], "shu nuqtayi nazardan, bu izoh haqiqatga ancha yaqindir" [1;32-b.]; "ko'pchilik tadqiqotchilar shu keyingi izohni ma'qul topadilar" [1;35-b.]; "...deb izohlaydilar" [1;33-, 39-b.]; "... kabi ma'nolarni beradi" [1;39-b.] kabi izohlarda ko'rishimiz mumkin. Lug'at tuzganda keng yondashgan holda boshqa olimlar tomonidan berilgan fikrlarni keltirish ishning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi, ammo unda ham muallifning shaxsiy xulosasi bo'lmog'i lozim.

Lug'atda O'zbekiston hududiga oid 318 ta, Rossiya hududiga oid toponimlardan 142 ta, sobiq ittifoq tarkibiga kirgan hudud nomlaridan 190 ta nom izohlangan. Ushbu nomlarni izohlashda ro'yxatda keltirilgan 30 dan ortiq adabiyot va lug'atlardan foydalanilgan bo'lib, turli olimlar tomonidan berilgan ma'lumotlar yig'indisiga o'xshab qolgan. Mualliflar tomonidan berilgan yakunlovchi xulosa, yoki fikr berilmagan:

Chalak – qishloq. Samarqand oblastining Poyariq rayonida. ko'pchilik toponimni chelak, ya'ni "paqir" deb tushunadi va chelak shaklida talaffuz qiladi. Aslida, so'zning chelakka hech qanday aloqasi yo'q. Toponim forscha chalak, ya'ni "yuqori, baland" degan so'z bilan bog'liqdir [1;144-b.].

Chermanyob – kanal. Xorazm oblastida. S.P.Tolstovning olib brogan tekshirishlariga ko'ra, bu kanal atrofida Xorazm tarixining yangi bosqichi boshlanadigan davriga mansub eng qadimgi shahar xarobalari topilgan [1;144-b.] kabilar.

Buni boshqa misollarda ham ko'rish mumkin. Mualliflar Bog'ot [1;32-b.], Gurlan [1;45–46-b.], Hazorasp [1;159–106-b.], Xorazm [1;142–143-b.], Urganch [1;137-b.] kabi o'z yashash hududidagi joy nomlarini izohlash jarayonida ham shaxsiy fikrlarini aniq ifodalab, xulosa qilmaganliklarini ko'rish mumkin.

2010-yil Z.Do‘simov va M.Tillayevalar tomonidan nashr qilingan “Xorazm onomastikasining shakllanishi va “Avesto” nomli monogrfiyada “Avesto”da keltirilgan atoqli otlar Xorazm vohasida mavjud nomlar bilan qiyoslab o‘rganilgan bo‘lib, kitob oxirida “Avesto”dagi atoqli otlar so‘zligi berilgan [2;112-b.]. Unda 500 dan ortiq atoqli otlar keltirilgan va juda qisqa izohlangan:

Avparatot – afzallik va ilg‘orlik ilohi.

Antar – Dahyu – tog‘ nomi.

Arnavak – Ajdahoning xotini. [2;98-b.]

Ushbu so‘zlikni “Avesto”da keltirilgan atoqli otlar bo‘yicha boshqa manba bo‘lgani bois keltirib o‘tish lozim deb bildik. Chunki muallif o‘z tadqiqotidagi sharhlar asosida “Avesto”da mavjud onomastik birliklar lug‘atini tuzishi mumkin.

Q.Ollayorov va V.Madiyorovalar tomonidan “Xorazm xalq dostonlaridagi atoqli otlar lug‘ati” tayyorlangan bo‘lib, u Xorazm regionida tarqalgan atoqli otlar to‘g‘risida nafaqat umumiy tasavvur berishi, balki ularni boshqa hududlarda tarqalgan nomlar bilan umumiy va farqli jihatlarini qiyoslashga ham imkon yaratadi. Xalq dostonlari tilida qo‘llanilgan nomlarning ayrimlari badiiylashgan va arxaiklashgan ko‘rinishga ega bo‘lishidan tashqari, ko‘pchiligi bugungi kunda ham o‘z faolligini yo‘qotmay kelayotgan nomlardir [5;88-b.]. Ushbu lug‘atda Xorazm dostonlari tilida qo‘llangan atoqli otlar qaysi dostondan olingani, sahifasi va misol bilan keltirilgan bo‘lib, lug‘at dostonlar onomastikasi bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilarga ko‘rsatkich sifatida qo‘shimcha yordamchi bo‘lishi mumkin**:**

Abbos *(O-2 “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, kishi nomi, 101-b.).*

...Hazrat Ali, Abbos yohud Alg‘iyos,

O‘zingsan sirdoshim yo ibn Abbos... .[5;5-b.]

Anqo *(G-2 “Xiromon dali” dostoni, afsonaviy qush nomi, 382-b) ...Ul tangridir jismi yo‘g‘u zoti bor, Anqo qushdir o‘zi yo‘g‘u oti bor..* [5;7-b.]

R.Y.Xudoyberganov, N.M.Uluqov, M.T.Mirakmalov, T.J.Enazarov, V.T.Nafasova, M.M.Avezov, Sh. Temirov, O.Bo‘riyev, X.O.Bo‘riyeva, O.Boltaboyev, Y.Ahmadaliyev, Q.Hakimov, Sh.Bekturdiyev, S. G‘aybullayev, K.Seytniyazov, Y.Ne’matovalar tomonidan nashr qilingan “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati” o‘zbek onomastikasi, toponimik leksikografiyasi uchun ulkan qadam bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu lug‘at muqaddimasida joy nomlari hududning o‘tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o‘simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari haqida ham qimmatli ma’lumotlar berishi, etnotoponimlar tarkibida ishtirok etgan etnonimlar orqali ma’lum bir hududda qaysi qabila, urug‘ vakillari yashaganligi, ularning turmush tarzi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, toponimlarning ma’nosini bilib olish orqali muayyan hudud haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun toponimik tadqiqotlar olib borish va joy nomlari lug‘atini tuzish lozimligi, bugungi kunda bunday lug‘atlarga ehtiyoj nihoyatda katta ekanligi N. Mahmudov va A.Primovlar tomonidan ta’kidlangan bo‘lib [6;3-b.], ushbu ehtiyojni onomastikaning boshqa sohalariga nisbatan ham aytish mumkin.

Lug‘atda keltirilgan nomlar quyidagi ko‘rinishda izohlangan: Abdurayimbovlon – Urgut tumanidagi Yangiariq kanalining o‘ng qirg‘og‘idan chiqarilgan ariq. Abdurahim (ism) va “bovlon, bog‘lon” (ming urug‘i tarmoqlaridan biri) so‘zlaridan yasalgan antropogidronim [6;12-b.].

Angarik – mahalla. Xorazm viloyati Xiva shahri. Xorazm shevasiga xos bo‘lgan “ang” so‘zi “eng” so‘zining dialektal shakli bo‘lsa, mazkur shevaga xos yana bir so‘z arikdir. U o‘rik so‘zining dialektal variantidir. Angarik yerlari juda hosildor, o‘rik va uzumlar ko‘p va ertapishar bo‘lgani uchun shevada ang (eng, old), arik (o‘rik) “ang-arik” – ertapishar o‘rik ma’nosida Angarik deb nom berganlar. “Angur-nek” forsiyda “anguri” so‘zi uzum degani, “nek” so‘zi shirin (yaxshi) degan shu ikki so‘z qo‘shilib, “shirin uzum” Xiva shevasida “angarik” so‘zi bo‘lib aytilib kelingan [6;19–20-b.].

Lug‘at R.Xudoyberganovning toponimik leksikografiyaga oid tadqiqot ishlarini boshlash uchun turtki bo‘lganini, ushbu lug‘at va lug‘atchilik haqida muallif tomonidan endi nashr qilinadigan maqolalar orqali tanishib borishimiz mumkin.

Onomastikaning yirik ko‘lamlaridan biri antroponimlar bo‘lib, antroponimik birliklarga ism, familiya, otaism, laqab, taxallus kabilarni kiritamiz. Biz tadqiqotimiz doirasida Xorazm shevalariga xos laqablarni tadqiq qildik. So‘rash yo‘li bilan to‘plangan laqablar soni qariyb uch mingtadan, fonetik variantlari bilan sanaganda besh mingdan ortiqni tashkil etdi. Biz Xorazm shevalarda mavjud so‘zlarning tarixiy-lingvistik ahamiyatini nazarda tutib, lug‘at tuzishga kirishdik va u laqablar bo‘yicha tuzilgan ilk lug‘at edi [4; 148-b.].

“Xorazm viloyati o‘zbek shevalaridagi laqablarning izohli lug‘ati”ini to‘ldirib borish, keyinchalik, Xorazm shevalariga xos ismlar, taxalluslar, so‘ngra to‘liq antroponimlar lug‘atini yaratishni maqsad qilib oldik.

Lug‘atga Xorazm shevalariga xos laqablar kiritilgan bo‘lib, ular adabiy tildan fonetik yoki leksik jihatdan farqlanadi, qo‘shma so‘zlar va so‘z birikmasi, qisqartma shaklidagi laqablar berilgan. Lug‘atda keltirilgan laqablarning olingan manbasi va hududini mazkur so‘z va uning izohidan keyin berib, lug‘at so‘ngida axborotchilar haqida ma’lumot keltirilgan. Laqablar quyidagi shaklda izohlangan:

Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyatiga shularnigina misol qilib keltirishimiz mumkin. Mavjud tadqiqotlarga asoslansak, “Avesto” onomastikasi, kosmonimlar, fitonimlar, biblionimlar, urbanonimlar, Ogahiyning tarixiy asarlari tiliga xos onomastik birliklar lug‘ati yaratilsa, ushbu tadqiqotlarning amalda qo‘llanishigina o‘quvchilarga ko‘proq foyda keltirishi mumkin.

Hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar asosida shakllangan onomastik birliklarning ma’lum bir shaklda tartibga solingan ilovalari mavjud, ammo ular hamon mualliflar tomonidan nashr qilinmagani, bugunga qadar Xorazm onomastlari tomonidan mukammal lug‘at nashr qilinmagani soha lug‘atshunosligining oqsayotganligini ham ko‘rsatib beradi.

Xorazmning qadimiy obidalari, ziyoratgoh-qadamjolar, mashhur bino-inshoot nomlari, masjid-madrasalar, sayyohlar uchun mo‘ljallangan mashhur nomlar lug‘ati, Xorazm adabiy muhiti vakillarining taxalluslari va ularning asarlariga xos onomastik birliklar lug‘atiga ehtiyoj bor. Chunki har bir nom o‘zida xalqning lingvokulturalogik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, ertnolingvistik xususiyatlarini to‘laligicha aks ettiradi.

Toponimika tizimida mavjud muammolarni ko‘rsatuvchi bitta misol keltirsak. Bugungi kunda yo‘lovchilarning aksariyati murojaat qiladigan lokatsiya tizimidagi imloviy xatolar, joy nomlari berilishidagi chalkashliklar, joy nomi asosida izlashning, odatda, besamarligi, ko‘p holatlarda mashhur ovqatlanish shoxobchalari, supermarket yoki boshqa nomdor idora-tashkilotlar nomi asosida izlashga to‘g‘ri kelishining o‘zi ham hudud toponimiyasiga oid muammolarning to‘la hal qilinmaganini ko‘rsatib beradi. Chunki iste’molchi mahalla va boshqa joy nomlarini bilmaydi. Bu esa bugungi kunda Xorazm viloyatidagi rasmiy va norasmiy joy nomlarini o‘rganish ehtiyoji mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Onomastik lug‘atlarning aniq tuzilishi, metodikasi hamon ishlanmagan. Lug‘at yaratishda faqat onomastika bo‘yicha mutaxassis bo‘lishning o‘zi yetarlimasligi, lug‘at yaratishda etnolingvistika, lingvokultirologiyadan va felektiv tillarga xos so‘zliklardan xabardor bo‘lish lozim, bu esa mualliflar jamoasini shakllantirish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shundagina mukammal shakldagi lug‘atni yaratish mumkin. Ushbu belgilangan vazifalarni bajarishda onomastikaga oid tadqiqot olib borayotgan olimlar jamoaning fikri va takliflariga, birgalikda amalga oshiradigan vazifalariga tayaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1977.

(2). Дўсимов З., Тиллаева М. Хоразм ономастикасининг шаклланиши ва “Авесто”. Тошкент, “Фан”, 2010.

(3). Бегматов Э. Ўзбек исмлари. Тошкент, Қомуслар бош таҳририяти, 1991.

(4). Qodirova X. Xorazm viloyati o‘zbek shevalaridagi laqablarning izohli lug‘ati. Xorazm, Khwarezm publication, 2024, 148-bet.

(5). Ollayorov Q., Madiyorova V. Xorazm xalq dostonlaridagi atoqli otlar lug‘ati. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari”, 2017.

(6). O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar: R.Y.Xudoyberganov va boshqalar. Toshkent, “Donishmand ziyosi”, 2022.

Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi;
e-mail: njorayeva461@gmail.com)

“SMILE/TABASSUM” TUSHUNCHALARINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA JINS VA YOSH OMILLARI ASOSIDA IFODALANISHINING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi “smile/tabassum” tushunchalarining yosh va jins kabi xususiyatlarni hisobga olgan holda til orqali qanday ifodalanishi tahlilga tortilgan. Tabassumning rasmiy va norasmiy kontekslardagi verbal ifodalarini taqqoslab, tadqiqot leksik, semantik hamda pragmatik farqlarni yoritishga, shu bilan birga, bu farqlarni sotsiolingvistik va madaniy omillar ta’sirida yuz berganligini o‘rganishdan iborat.*